

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc. 03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TUXTASINOV ZAFARJON ODILJONOVICH

**MAHALLALARDA HUNARMANDCHILIK VA TADBIRKORLIKNI
RIVOJLANTIRISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent — 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich

Mahallalarda hunarmandchilik va tadbirkorlikni
rivojlantirish..... 3

Тухтасинов Зафаржон Одилжонович

Развитие предпринимательства и ремесленничества в
махалях..... 27

Tukhtasinov Zafarjon Odiljonovich

Development of entrepreneurship and handicraft in
mahallas..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список опубликованных работ 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc. 03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TUXTASINOV ZAFARJON ODILJONOVICH

**MAHALLALARDA HUNARMANDCHILIK VA TADBIRKORLIKNI
RIVOJLANTIRISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Iqt5911 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tursunov Bobir Ortikmirzayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kasimova Fotima Tulkunovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin _____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.K.Abduraxmonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rasi, i.f.d., professor

O.Dj.Djurabaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

Sh.A.Allayarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rasi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, global bizneslarning taxminan 90 % kichik va o'rta korxonalar (SMEs) bo'lib, ular butun dunyo ishchi kuchining 50 % dan ortig'ini ish bilan ta'minlab kelmoqda; faqat rasmiy SMEs esa rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 40 % gacha hissasini tashkil etadi. Bu sektor 2030-yilgacha global mehnat bozorida 600 million yangi ish o'rinlari yaratilishi zarurligini ko'rsatadi — bu esa SME'larni moliyaviy va strukturalar jihatidan qo'llab-quvvatlash zaruratini yana bir bor yuzaga chiqaradi¹.

Jahon Bankining Entrepreneurship Database'iga ko'ra, 180 ta iqtisodiyotda 2006–2022 yillarda ro'yxatdan o'tgan yangi yuridik shaxslar soni bilan bir qatorda yangi biznes boshqaruv dinamikasi kuzatilmoqda. Bu ma'lumotlar dissertatsiya doirasida hovantahlili qilinishi ko'zda tutilgan asosiy indikatorlarni tashkil etadi. Hunarmandchilik sohasida global bazada aniqraq statistik ko'rsatkichlar hozircha mavjud emas, biroq World Bank ICR hisobotida global "artisanal livelihoods" loyihasida hunarmandchilik bozorining yillik o'sish sur'ati 12 % atrofida bo'lishi prognoz qilingan².

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, hunarmandchilik an'analari tiklash va mahalliy iqtisodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mahalla institutining ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi roli oshib borar ekan, mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishni samarali boshqarish, bu sohalarda infratuzilmaviy va tashkiliy takomillashtirishni ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mahalliy darajadagi tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati aholining bandligini ta'minlash, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy o'sishni kuchaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, aholi zich yashaydigan hududlarda hunarmandchilik va kichik biznesni rivojlantirish orqali mahalla iqtisodiyotini jonlantirish, ishsizlikni kamaytirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Bu esa mavjud boshqaruv tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, moliyalashtirishning cheklanganligi, biznes bilimlari va ko'nikmalarining etishmasligi va mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan samarali menejment strategiyalariga ehtiyoj kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.12.2021-yildagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" PF-29-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.08.2022-yildagi "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi

¹ <https://www.worldbank.org/en/topic/sme/finance>

² <https://documents1.worldbank.org/curated/en/397571599224606748/pdf/Implementation-Completion-and-Results-Report-ICR-Document-Developing-Artisanal-Livelihoods-in-Rural-Pakistan-RANG-P145420.pdf>

bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo'yicha namunaviy konsepsiyani tasdiqlash to'g'risida"ga 450-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.06.2024-yildagi "Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 334-son qarori, 2021-yil 21-apreldagi PQ-5087-son «Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-oktyabrdagi PF-4848-son "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 15-sentyabrdagi PF-6314-son "Tadbirkorlik subyektlari uchun ma'muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ularning barqarorligini ta'minlashning nazariy va uslubiy asoslari hamda ularning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish masalalari xorijiy iqtisodchi olimlardan J.B.Sey, A.Smit, R.Kantilyon, Y.Shumpeter, R.Xizrich, M.Piters, A.Xosking, R.Akoff, L.Vodachek, P.Druker, L.Mizes, F.Xayek, E.Xargadon va boshqalarning asarlarida keng yoritilgan³.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, nazariy asoslari va uning hududiy xususiyatlari bo'yicha MDH olimlaridan L.I.Abalkin, D.V.Xodos, G.S.Seyalova, V.V.Radayev, V.M.Vlasova, A.M.Samozkin, V.G.Gutman, I.A.Rodionova, V.G.Medinskiy, L.G.Sharshukova va A.V.Busiginlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar⁴.

³ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов.-М.: 1976.-332 с.; Кантилён Р. Основы предпринимательской деятельности.- М.: 1994. – 144 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.:1982.-230 с.; Хизрич Р. Питерс М. Предпринимательство. Вып 1. –М.: 1998.– 126 с.; Сей Ж.Б. Трактат политической экономии – М.: Экономика. 1980.-217 с.; Хоскинг А. Курс предпринимательства.- М.: Международные отношения, 1993. - 273 с. Акофф Р. Искусство решения проблем. – М. Мир, 1992. – 224с.; Водачек Л., Водачкова. Стратегия управления инновациями на предприятии. – М.: Экономика, 2004.-365с.; Друкер П. Управление бизнесом. – М.: Алпина Диджитал, 2016. -250 с.; Мизес Л. Теория и история: Интерпретация социально-экономической эволюции. –М.: Юнити-дана, 2001 -295 с.; Хаек Ф. Право, законодательство и свобода. –М.: Ирисен, 2006. -220 с.; Харгадон Э. Управление инновациями. Опыт ведущих компаний. –М.: ИД Вилямс, 2007. 340 с.

⁴ Абалкин Л.И. От экономической теории до концепции долгосрочной стратегии // Абалкин Л. Проблемы современной России. М., 2011, с. 39-47. Ходос Д.В. Экономический механизм развития сельскохозяйственного производства. - Красноярск: Изд-во КрасГАУ, 2008. - 234 с. Сеялова Г.С. Организационно-экономический механизм управления предприятиями. Монография. "Оренбург. гос. ун-т". - Оренбург : ОГУ, 2006. - 139 с. Радаев В.В. Экономика переходного периода. Учебное пособие.-М.:1995.-456 с.; Власова В.М. Основы предпринимательской деятельности. –М.: Финансы и статистика 1996.-106 с.;

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlarini mamlakatimiz iqtisodchi olimlari M.Sharifxo'jayev, S.S.G'ulomov, Yo.Abdullayev, B.Yu.Xodiyev, M.S.Qosimova, Sh.N.Zaynutdinov, A.Sh.Bekmurodov, J.Kambarov, N.X.Jumayev, D.N.Raximova, N.Q.Yo'ldoshev, A.G'ofurov, M.R.Boltabayev, B.K.G'oyibnazarov, N.M.Maxmudov, S.K.Salayev, Sh.Ergashxodjayeva, U.V.Gafurov, D.A.Artiqova, D.S.Alimatova, M.M.Ibragimov, O.Kazakov, K.Kurpayanidi, M.Ashurovlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁵.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni rivojlantirish xususiyatlari tadqiq etilgan. Biroq, mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ITM-6-bandi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzudagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahallalarda tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlantirishni bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik va hunarmadchilikning iqtisodiy mazmuni ochib berish;

mezo darajada tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarish nazariyalari genezisini o'rganish;

mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmadchilikni tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

O'zbekistonda tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlanish dinamikasi tahlil qilish;

Самозкин А.М. и др. Теория и практика бизнеса. –М.: RFA.1997.–230 с.; А.Г.Гранберг Основы региональной экономики. М.: GU.VSHE. 2004. -495 с.; В.Г.Гутман и др. Управление региональной экономикой М.: Финансы и статистика. 2002. -176 с.; Родионова И.А. Региональная экономика. М.:Экзамен. 2003. -384 с.; Медынский В. Г., Шаршукова Л. Г. Инновационное предпринимательство: Учеб. пособие. –М.: ИНФРА-М, 1997. -237 с.; Бусыгин А. Предпринимательство. –М.: Бусыгин, 2003. -614 с.

⁵ Sharifxo'jayev M., Abdullayev Yo. Menejment. Darslik. –T.: 2003. -37 b.; G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: 2002. -256 b.; Abdullayev Yo. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari, 100 savolga - 100 javob. –T.: Mehnat. 2002. -157 b.; Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S. va boshqalar. Kichik biznesni boshqarish. –T.: 2003. –258 b.; Xodiyev B.Yu. O'zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik rivojini ekonometrik modellashtirish.: I.f.d. dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2000. -42 b.; Zaynutdinov Sh.N. Innovatsionnyy menedjment. –T.: Akademiya, 2006. -267 s.; Bekmurodov A.Sh., Yo'ldashev N.K. Menejment. O'quv qo'llanma. –T.: "Fan". 2004. – 65 b.; Ergashev F., Rahimova D., Sagdullayev A., Parpiyev O., Zaynutdinov Sh. Innovatsion menejment. Darslik. T.: Akademiya, 2005. -90 b.; G'ofurov A. Kichik xo'jalik yurituvchi tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Monografiya. Farg'ona: 2008.-74 b.; Boltabayev M.R., G'oyibnazarov B.K., Otajonov Sh.I. Kichik biznes va tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. -T.: 2011.-43 b.; Salayev S.K. Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: 2007.-14 b.; Sh.J.Ergashxodjayeva. Innovatsion marketing. – T.: Cho'lpon, 2014. – 178 b.; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.: iqt.fan.dok...diss. -T. O'zBMA. 2017. – 274 b.; Alimatova D.S. Mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish.: i.f.d. diss. avtoref. -T.: TMI. 2018. – 77 b.; Ibragimova M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tarkibiy o'zgarishlar asosida samaradorligini oshirish. i.f.b.f.d. diss. avtoref.-T.TDIU. 2018. – 54 b.;

Fargʻona vodiysi mahallalarida tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlanishi holatini tahlil qilish

mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili asosida latent omillarni aniqlash;

mahallalarda tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlanishini boshqarish samaradorligini baholash uslubini takomillashtirish;

tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlantirishni xorijiy davlatlar tajribasi va ulardan mamlakatimizda foydalanish yoʻnalishlarini ishlab chiqish;

Oʻzbekiston mahallalarida tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlanishining 2030-yilgacha prognoz ssenariyalarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Fargʻona viloyati mahallalarida faoliyat koʻrsatayotgan tadbirkor va hunarmandlar faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti boʻlib mahallalarda tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlantirish jarayonida yuzaga keluvchi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqot ishidagi muammoni oʻrganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, sintezlash, induksiya va deduksiya, empirik baholash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, statistik maʼlumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, prognozlash tanlanma kuzatuv, va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahallalarda tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlanishiga taʼsir etuvchi latent omillarni aniqlovchi PLS-SEM modeli asosida taʼlim va malaka oshirish (F2 -> Q3) [0,111], (F2 -> Q1) [0,579], infratuzilma yaratilishi F3 -> Q3 [0,392], mahalladagi ijtimoiy muhit va madaniy anʼanalar F5 -> Q1 [0,010], F5 -> Q2 [0,347], F5 -> Q3 [0,281] taʼsir koeffitsiyentlari aniqlangan;

mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi “har bir mahalla — tadbirkorga tayanch” tamoyilining joriy etilishi hamda tijorat banklari bilan bevosita hamkorlikda “mahalla kredit portfeli” joriy etishi asosida takomillashtirilgan;

mahallalarda tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlanishini boshqarish samaradorligini baholash uslubi [0 dan 0,30 gacha]-yomon, [0,31 dan 50 gacha]-qoniqarsiz, [0,51 dan 70 gacha]-qoniqarli, [0,71 dan 0,85 gacha]- yaxshi, [0,86 dan 1 gacha]-aʼlo mezonlari asosida takomillashtirilgan;

Oʻzbekistonda mahalla infratuzilmasini tadbirkorlikka yoʻnaltirish asosida Fargʻona viloyati Rishton tumani mahallalarida kichik biznesni rivojlanishining 2030-yilgacha prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

mahalla kesimida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun moslashtirilgan strategiyalar ishlab chiqilgan;

mahallalarning oʻziga xos xususiyatlariga mos keladigan biznes oʻsishini ragʻbatlantirish (motivasion) nuqtalari aniqlangan;

mahallalarda tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish asosida yangi ish oʻrinlari yaratish va iqtisodiy faollikni oshirish boʻyicha amliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mahalliy biznes va tadbirkorlikka ta'sir etuvchi latent omillar aniqlangan hamda mahalliy biznes muhitini yanada samarali boshqarish yo'nalishlari belgilangan;

mahallalarda biznesni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar va inkubatorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari taklif etilgan.

Olingan natijalarining ishonchligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ekonometrik va matematik usullarning asoslanganligi, statistik ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika agentligining ma'lumotlariga hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi va tegishli xulosa, takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, mahallalarda kichik biznes subyektlarini strategik boshqaruv vositalari asosida rivojlantirish bo'yicha strategiya ishlab chiqilgan va tavsiyalardan ilmiy xodimlar tomonidan qo'llanma va uslubiy tavsiyalar tayyorlashda, mahallalarda tadbirkorlik subyektlarini ko'paytirish asosida ish bilan ta'minlash darajasini oshirish chora-tadbirlar ko'rish uchun foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa mahallalarda kichik biznes subyektlarini strategik boshqaruv vositalari asosida rivojlantirish yondoshuvlarini tadqiq etish, taklif etilgan mahallalarda kichik biznes subyektlarini rivojlantirishning strategik mexanizmi, mahallalarda kichik biznes subyektlari faoliyatini kompleks baholash, reytingni aniqlash usullaridan "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi va unga a'zo to'qimachilik korxonalari faoliyatida, inqirozga qarshi kurashishni takomillashtirishda foydalanish mumkin. Shu bilan birga, tadqiqot natijalaridan "Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti", "Menejment", "Biznesni boshqarish", "Strategik menejment" fanlari bo'yicha tegishli ilmiy tadqiqot ishlarida, ma'ruzalar matni, keys-stadi, o'quv qo'llanmalar va darslik tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahallalarda tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy amaliy va uslubiy taklif hamda tavsiyalar asosida amaliyotga joriy etildi.

mahallalarda tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlanishiga ta'sir etuvchi latent omillarni aniqlovchi PLS-SEM modeli asosida ta'lim va malaka oshirish (F2 -> Q3) [0,111], (F2 -> Q1) [0,579], infratuzilma yaratilishi F3 -> Q3 [0,392], mahalladagi ijtimoiy muhit va madaniy an'analar F5 -> Q1 [0,010], F5 -> Q2 [0,347], F5 -> Q3 [0,281] ta'sir koeffitsiyentlari bo'yicha takliflar O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatiga tadbiriq etilgan (O'zbekiston mahallalari uyushmasining 2025 yil 27-noyabrda 02-02-07/1514-son ma'lumotnomasi). Natijada, mahallalarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanildi.

mahallalarda tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi "har bir mahalla — tadbirkorga tayanch" tamoyilining joriy etilishi hamda tijorat banklari bilan bevosita hamkorlikda "mahalla kredit portfeli" joriy etishi asosida

takomillashtirilsh bo'yicha takliflar O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatiga tadbqiq etilgan (O'zbekiston mahallalari uyushmasining 2025 yil 27-noyabrdagi 02-02-07/1514-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz mahallalarida kichik va o'rta biznes rivojlanishi va investitsiyalar hisobiga 2025 yil boshidan buyon 5 mln aholi ish bilan ta'minlashga erishildi.

mahallalarda tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlanishini boshqarish samaradorligini baholash uslubi [0 dan 0,30 gacha]-yomon, [0,31 dan 50 gacha]-qoniqarsiz, [0,51 dan 70 gacha] -qoniqarli, [0,71 dan 0,85 gacha]- yaxshi, [0,86 dan 1 gacha]-a'lo mezonlari asosida takomillashtirilsh bo'yicha takliflar O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatiga tadbqiq etilgan (O'zbekiston mahallalari uyushmasining 2025 yil 27-noyabrdagi 02-02-07/1514-son ma'lumotnomasi). Natijada, Har bir mahalla bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilanib, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan "mahalla loyihasi" dasturi doirasida ajratiladigan 1 milliard dollar kredit resurslari banklar va hududlar kesimida taqsimlandi.

O'zbekistonda mahalla infratuzilmasini tadbirkorlikka yo'naltirish asosida Farg'ona viloyati Rishton tumani mahallalarida kichik biznesni rivojlanishining 2030-yilgacha prognoz ssenariylari bo'yicha takliflar O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatiga tadbqiq etilgan (O'zbekiston mahallalari uyushmasining 2025 yil 27-noyabrdagi 02-02-07/1514-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2030-yilgacha bo'lgan davrdagi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda asosiy ko'rsatkich va parametrlarni o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, 4 ta mahalliy jurnallarda, 2 ta xalqaro jurnallarda ilmiy maqola, 5 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 142 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi va sinovdan o'tganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida tadbirkorlik va hunarmadchilikning iqtisodiy mazmuni ochib berilgan, mezo

darajada tadbirkorlik va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarish nazariyalari genezisi keltirilgan, Mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmadchilikni tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari bayon qilingan va bu borada mualliflik yondashuvlari ilgari surilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat hamda tadbirkorlik faoliyatiga qaratilayotgan e'tibor tufayli tashqi iqtisodiy aloqalar muntazam rivojlanib bormoqda. Jahonning ko'plab mamlakatlari bilan xalqaro savdo munosabatlari o'rnatilgan. Keyingi yillarda tadbirkorlikning rivojlanishi va ularni tashqi iqtisodiy faoliyatga kirishishlari natijasida mamlakatimizda tovarlar va xizmatlar eksporti hajmi ortib bormoqda.

1-jadval.

O'zbekiston va xorijiy iqtisodchi olimlarining "Tadbirkorlik" atamasiga bergan ta'riflari⁶.

Yillar	Mualliflar	Ta'riflar	Asosiy elementlar
1725-1730	Richard Cantillon	Tadbirkorlik – noaniqlik sharoitida xavf-xatarni o'z zimmasiga olib, resurslarni samarali boshqarish orqali foyda olish faoliyati ⁷	Xavf-xatar, noaniqlik, resurslarni boshqarish, foyda olish
1803-1820	Jean-Baptiste Say	Tadbirkorlik – ishlab chiqarish omillarini (mehnat, kapital, yer) birlashtirib, iqtisodiy qiymat yaratish jarayoni ⁸	Ishlab chiqarish omillari, qiymat yaratish, tashkilotchilik
1934	Joseph Schumpeter	Tadbirkorlik – innovatsiyalar orqali iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, "ijodiy yo'q qilish" jarayoni ⁹	Innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish, ijodiy yo'q qilish
1961-1970	Peter Drucker	Tadbirkorlik – imkoniyatlarni aniqlash va ulardan foydalanish orqali iqtisodiy yoki ijtimoiy qiymat yaratish ¹⁰	Imkoniyatlarni aniqlash, innovatsiya, qiymat yaratish
2000	Abdurahmonov Q.X.	Tadbirkorlikni iqtisodiy faoliyatning shakli sifatida ta'riflab, uni mahalliy sharoitda kichik biznes orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omil sifatida ko'rgan.	Kichik biznes, iqtisodiy o'sish, mahalliy sharoitlar
2005	Sh.Sh. Shodmonov	Tadbirkorlik – bu mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ijodkorlik, yangilik yaratish ruhi asosida yondashish bilan bog'liq harakatdir ¹¹	Mahsulot ishlab chiqarish, yangilik yaratish
2010	Ding Li (Rus olimi)	Tadbirkorlik – jamiyat a'zolari yoki ularning birlashmalari tomonidan tovar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki ishlar bajarish orqali ijtimoiy foydali faoliyat ¹²	Ijtimoiy foyda, tovar/xizmat ishlab chiqarish
2018	M.Q. Pardayev	Tadbirkorlik – bu iqtisodiy faoliyat turi bo'lib, unda shaxs yoki tashkilot o'z resurslarini xavf-xatar ostida foyda olish maqsadida ishlatadi, innovatsion yondashuvlar va bozor imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi mahsulot yoki xizmatlar yaratadi ¹³	Innovatsiya, xavf-xatarni boshqarish

⁶ O'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

⁷ Cantillon, R. (1755). *Essai sur la Nature du Commerce en Général*.

⁸ Say, J.-B. (1803). *Traité d'économie politique*.

⁹ Schumpeter, J. A. (1934). *The Theory of Economic Development*

¹⁰ Drucker, P. F. (1985). *Innovation and Entrepreneurship* (va 1960-yillardagi ishlar)


¹¹ Sh. Shodmonov, V. G'afurov (2005). *Iqtisodiyot nazariyasi* (darslik), 305-bet.

¹² Ding Li (2010). *Tadbirkorlikning ijtimoiy jihatlarini*.

¹³ *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* ilmiy elektron jurnali, №3, 2018

Tadbirkorlik tushunchasiga juda ko‘plab olimlar tomonidan ta’riflar keltirilgan. Buni quyidagi jadvaldan ham ko‘rish mumkin (1-jadval)

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, ushbu atama juda keng qamrovli bo‘lib, ushbu ta’riflardan kelib chiqib biz ushbu atamaga o‘z ta’rifimizni keltiramiz: “Tadbirkorlik – iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash maqsadida noaniq sharoitlarda innovatsion imkoniyatlarni aniqlash, resurslarni samarali va barqaror tarzda birlashtirish orqali iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik qiymat yaratish jarayoni. Tadbirkorlik sub’yektlari xavf-xatarni boshqarish, raqobatbardosh bozorlarda yangi yechimlar ishlab chiqish va institutsional islohotlarni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotning o‘shishiga, ish o‘rinlari yaratilishiga va jamiyat farovonligiga hissa qo‘shadi”.



1-rasm. Hunarmandchilik va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning institutsional tizimi¹⁴

Milliy an’analar va ijodga asoslangan, yestetik mezonlar va funksional yehtiyojlarga javob beradigan, yuqori malakali mehnatni qo‘llaydigan badiiy

¹⁴ Muallif ishlanmasi

hunarmandchilik - uning natijasi san'at asari darajasidagi mahsulotdir.

Hozirgi zamon hunarmandchiligi fan va texnika yutuqlari asosida vujudga kelgan yangi hunarmandchilik turidir. Biz quyida keltiradigan hunarmandchilikning bu turlari kishidan yuksak malaka, mahorat va ko'nikma talab qiladi. Bular kvilling, kvilling, dekupage, kardmeyking, skrapbukiing, felting, pauvork, fyuzing, foamiran, floking kabi hunarmandchilik turlaridir. Fikrimizcha, ushbu faoliyat sohalarini zamonaviy hunarmandchilikka kiritish va qonunchilik darajasida mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Hunarmandchilikda ko'plab murakkab mashinalar, mexanizmlar va innovatsiyalarning qo'llanilishi natijasida tegirmonchilik va novvoylik hunarmandchiligi oziq-ovqat sanoatiga, yetikdo'zlik hunarmandchiligi poyabzal sanoatiga, tikuvchilik hunarmandchiligi tikuvchilik sanoatiga, temirchilik hunarmandchiligi metallga ishlov berish sanoatiga aylandi.

Mahalla arabcha atama bo'lib, tarixan ijtimoiy va ma'muriy-hududiy birlik sifatida shakllangan. U Markaziy Osiyo va musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, kasbga ixtisoslashuv, jamoatchilik boshqaruvi va ichki tartib-qoidalar bilan ajralib turgan. Tarixiy manbalar mahallaning qadimiy va barqaror institut ekanini tasdiqlaydi. Ushbu bobda tadbirkorlik va hunarmandchilikning iqtisodiy mazmuni ochib berilgan, mezo darajada tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishni boshqarish nazariyalari genezisini o'rganilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston mahallalarida tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlanishning hozirgi xolati tahlili”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida O'zbekistonda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlanish dinamikasi tahlil qilingan, Farg'ona vodiysi mahallalarida tadbirkorlikni va hunarmandchilikni rivojlanishi holati o'rganilgan, Mahallalarada tadbirkorlikni va hunarmandchilikni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

Farg'ona vodiysi hunarmandchiligining jonlanishi, avvallari shahrixon pichoqchiligi, Chust pichoqchilik va boshqalar kabi an'anaviy yo'nalishlar asosida kechmoqda¹⁵. Ushbu hududda 2017-yil prezident farmoni bilan hunarmandchilarga keng imkoniyatlar yaratildi — yer, binolar, imtiyozli kreditlar, savdo-sotiq va eksport imkoniyati kengaytirildi.

Hunarmandchilikni rivojlantirish chora-tadbirlarida mahallalar aholisi, xususan ayollar, kam ta'minlanganlar va yoshlar faol jalb qilinishi belgilangan. “Usta-shogird” maktablari tashkil etilib, hunarmandlarni uyushmalarga integratsiya qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan¹⁶.

Tahlil natijalariga ko'ra, Farg'ona vodiysi mahallalarida tadbirkorlik va hunarmandchilikning rivoji iqtisodiy va madaniy potensialni birlashtirganda uzluksiz o'sishga yo'l ochadi. Mahalla qo'llab-quvvatlashi, imtiyozli kreditlar, logistik infratuzilma, usta-shogird yo'nalishlari va turizm mexanizmlari bilan kengaytirilmoqda, shu asosida iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy hayot sifati, ish o'rinlari va eksport salohiyati sezilarli darajada oshdi.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, Farg'ona viloyatida dehqon va fermer

¹⁵ https://uza.uz/oz/posts/fargona-vodiysi-hunarmandchiligi-tarixidan-shahrixon-pichoqlari-misolida_687538

¹⁶ <https://www.mineconomy.gov.uz/uz/info/1923>

xo'jaliklarisiz ro'yxatga olingan xo'jalik subyektlari soni 63 946 tani tashkil etdi. Shundan 34 302 tasi faoliyat yuritayotgan, qolgan 29 644 tasi esa iqtisodiy faol emas. Bu holat – umumiy subyektlarning 46,3 foizi – iqtisodiy muhitdagi muammolar, moliyaviy cheklovlar yoki tartibga solish yuklari bilan bog'liq. Yil boshidan 6153 ta yangi subyekt tashkil etilgan, 2808 tasi tugatilgan bo'lib, ijobiy o'sish dinamikasi kuzatilmoqda.

2-jadval

Farg'ona viloyatida 2025 yil 1-yanvar holatiga. ro'yxatdan o'tgan sub'ektlar (dehqon, fermer xo'jaliklarisiz) soni to'g'risida ma'lumot

Shahar, tuman nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Faoliyat ko'rsatmayotgan	Yil boshidan yangi tashkil etilgan	Yil boshidan tugatilgan
Jami	63946	34302	29644	6153	2808
Oltiariq tumani	3170	1962	1208	355	132
Qo'shtepa tumani	2186	1260	926	290	153
Bag'dod tumani	2475	1316	1159	247	87
Buvayda tumani	2875	1354	1521	257	141
Beshariq tumani	2298	1212	1086	261	119
Quva tumani	3103	1524	1579	287	134
Uehko'prik tumani	3233	1744	1489	283	43
Rishton tumani	2459	1503	956	312	150
So'x tumani	1594	983	611	152	43
Toshloq tumani	2815	1388	1427	250	236
O'zbekiston tumani	2936	1518	1418	257	125
Farg'ona tumani	2631	1558	1073	258	69
Dang'ara tumani	2912	1450	1462	196	140
Furqat tumani	1708	896	812	180	90
Yozyovon tumani	1747	1200	547	331	36
Farg'ona shahar	11024	6057	4967	1013	453
Qo'qon shahar	7186	3511	3675	521	282
Quvasoy shahar	2412	1227	1185	279	128
Marg'ilon shahar	5182	2639	2543	424	247

Farg'ona viloyatida 2025 yil 1-yanvar holatiga ko'ra dehqon va fermer xo'jaliklarisiz faoliyat yuritayotgan subyektlar soni 34 302 tani tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich viloyatdagi kichik biznes va tadbirkorlik sektorining yuqori darajada faol ekanligini ko'rsatadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, faoliyat turlari bo'yicha eng katta ulush savdo sohasiga to'g'ri keladi – 11 641 ta subyekt yoki jami subyektlarning qariyb 34 foizi shu yo'nalishda ishlamoqda. Bu holat Farg'ona viloyati iqtisodiy tizimida savdo faoliyatining yetakchi sektor ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, sanoat (5615 ta subyekt), boshqa turdagi xizmatlar (8791 ta), qurilish (2061 ta) va yashash hamda ovqatlanish xizmatlari (1850 ta) sohalari ham salmoqli o'rin tutmoqda.

3-jadval

Farg‘ona viloyatida 2025 yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko‘rsatmayotgan sub‘ektlar (dehqon, fermer xo‘jaliklarisiz) sonining faoliyat ko‘rsatmayotgan sub‘ektlar (dehqon, fermer xo‘jaliklarisiz) soniga nisbati

Nomi	Jami	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	Sanoat	Qurilish	Savdo	Tashish va saqlash	Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	Axborot va aloqa	Sog‘inchi saqlash va ijtimoiy xizmatlar	Boshqa turdagi xizmatlar
Jami	0,86	1,54	1,30	1,18	0,91	0,71	1,00	1,63	0,28	0,39
Oltiariq tumani	0,62	1,29	1,11	0,71	0,69	0,27	0,69	0,88	0,26	0,36
Qo‘shtepa tumani	0,73	1,39	1,06	1,32	0,79	0,33	0,94	1,14	0,23	0,18
Bag‘dod tumani	0,88	1,35	1,27	1,46	1,01	1,15	0,92	1,00	0,38	0,27
Buvayda tumani	1,12	2,07	2,12	2,08	1,08	0,96	1,93	1,64	0,27	0,37
Beshariq tumani	0,90	0,87	1,48	2,22	1,12	0,92	1,87	3,14	0,28	0,29
Quva tumani	1,04	2,04	1,49	1,53	1,12	1,07	1,17	2,04	0,39	0,37
Uchko‘prik tumani	0,85	2,22	0,96	1,03	0,91	0,80	0,78	1,42	0,26	0,43
Rishton tumani	0,64	1,60	1,19	0,81	0,56	1,11	0,78	0,80	0,16	0,21
So‘x tumani	0,62	0,83	1,04	0,68	0,67	0,21	0,48	1,00	0,31	0,20
Toshloq tumani	1,03	2,89	1,38	0,89	1,13	0,72	1,10	1,63	0,46	0,38
O‘zbekiston tumani	0,93	1,87	1,29	2,80	0,95	0,67	1,08	2,00	0,45	0,37
Farg‘ona tumani	0,69	1,02	1,24	1,00	0,69	0,76	0,91	1,67	0,30	0,27
Dang‘ara tumani	1,01	1,74	1,41	1,21	1,07	0,90	1,06	4,43	0,34	0,34
Furqat tumani	0,91	1,42	1,14	1,23	1,20	1,05	0,7	1,33	0,18	0,36
Yozyovon tumani	0,46	0,85	0,69	0,74	0,38	0,55	0,73	1,17	0,11	0,17
Farg‘ona shahar	0,82	1,53	1,35	1,09	0,84	0,83	0,95	1,53	0,20	0,49
Qo‘qon shahar	1,05	2,90	1,51	1,37	1,00	1,13	1,39	2,3	0,30	0,60
Quvasoy shahar	0,97	1,63	1,48	1,16	0,89	0,89	1,26	2,38	0,40	0,50
Marg‘ilon shahar	0,96	3,26	1,25	1,28	1,07	0,85	0,84	2,17	0,29	0,43

Hududlar kesimida Farg‘ona shahri eng ko‘p faol subyektga ega bo‘lib, jami 6057 ta korxonalar bu yerda faoliyat yuritmoqda. Ushbu subyektlarning asosiy qismi savdo (1658 ta), sanoat (652 ta) va boshqa xizmatlar (1861 ta) sohalarida

to'plangan. Bu ko'rsatkich Farg'ona shahrining markaziy iqtisodiy hudud sifatidagi rolini tasdiqlaydi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sektori – ayniqsa yashash va ovqatlanish (487 ta) hamda axborot va aloqa (180 ta) sohalarining ham jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Ikkinchi o'rinda Qo'qon shahri (3511 ta subyekt) turadi. Qo'qonda ham savdo eng ko'p rivojlangan yo'nalish bo'lib (1300 ta), undan so'ng sanoat (648 ta) va boshqa xizmatlar (857 ta) keladi. Marg'ilon shahri ham yuqori iqtisodiy faollikka ega bo'lib, 2639 ta subyekt faoliyat yuritmoqda. Bu shaharlar viloyat iqtisodiyoti va tadbirkorlik infratuzilmasining asosiy tayanch nuqtalaridir.

Farg'ona shahri, Marg'ilon, Qo'qon, Oltiariq va Uchko'prik hududlari iqtisodiy faolligi yuqori joylar sirasiga kiradi. Biroq ayrim tumanlarda, xususan, Dang'ara va Toshloqda, faoliyat ko'rsatmayotgan subyektlar ustunlik qilmoqda. Bu esa mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va barqaror biznes muhitini yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlilga ko'ra, eng yuqori o'sish "Turaobod", "Istiqlol", "Qozi-Ahror", "Dekhqonobod", "Chinigaron", "Nosgar" va "Toshog'olik" mahallalarida kuzatilmoqda. Masalan, "Turaobod" MFYda 2020-yilda 80 nafar hunarmandlar bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ularning soni 147 nafarga yetgan, ya'ni 84% ga o'sgan. Bu mahallaning hududiy ixtisoslashuvi yoki mahalliy boshqaruvning maqsadli qo'llab-quvvatlash choralari natijasi bo'lishi mumkin. Shuningdek, "Istiqlol" MFYda 2020-yildagi 38 nafar a'zolar soni 2025-yilga kelib 58 nafarga yetgan, "Qozi-Ahror"da 40 nafardan 52 nafarga, "Chinigaron"da esa 68 nafardan 80 nafarga ko'tarilgan. Bunday turg'un o'sish, ushbu mahallalarda hunarmandlik an'analari mustahkam o'rnashgani va iqtisodiy imkoniyatlar mavjudligini bildiradi.


Boshqa tomondan, ayrim mahallalarda esa bu ko'rsatkichlar butunlay nolga teng yoki juda past. Masalan, "Abdulloyon", "Tuda", "Saroy", "Qayrag'och", "Polvonobod", "Sohibkor", "T.Ahmedov", "Yangi yo'l", "Yangi avlod" kabi mahallalarda 2020–2025-yillar oralig'ida umuman hunarmandlar a'zolik holati qayd etilmagan. Bu holat, bir tomondan, bu mahallalarda iqtisodiy faollikning sustligi, hunarmandchilik bo'yicha tashabbuslarning yetishmasligi yoki imkoniyatlarning cheklangani bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ikkinchi tomondan esa, ehtimoliy bozor va infratuzilma cheklovlari, bilim va ko'nikmalarning yetarli emasligi ham ta'sir etayotgan omillardandir.

Qiziqarli jihatlardan yana biri, 2023–2025 yillarda o'sish sur'atining erta yillarga nisbatan pasayganidir. 2020–2021 va 2021–2022 yillarda har yili o'rtacha 70 nafarga yaqin yangi hunarmand a'zolar ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, 2024–2025 yilda bu raqam atigi 33 nafarga oshgan. Bu esa ma'lum bir to'yinganlik nuqtasiga yetilganlik yoki tashkiliy jihatdan a'zolik jarayonining sekinlashganini ko'rsatadi. Shu bois, kelgusida a'zolikni rag'batlantirish, marketing va elektron tijorat imkoniyatlarini kengaytirish, yoshlar orasida hunarmandlik ko'nikmalarini targ'ib qilish kabi chora-tadbirlar orqali ushbu jarayonni barqarorlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Alohida ta'kidlash joizki, ba'zi mahallalarda son jihatidan kichik bo'lsa-da, yilma-yil ijobiy o'sish qayd etilmoqda. Masalan, "Guliston", "Dahbed", "Zoxidon", "Guzar", "Gumbaz", "Qo'shqayron", "Yoshlar" kabi MFYlarda 1-2

nafardan boshlab, 5-6 nafargacha ko‘tarilish kuzatilgan. Bu esa, kichik boshlang‘ich resurslar bilan ham mahalla darajasida hunarmandchilikni rivojlantirish mumkinligini isbotlaydi.

Dissertasiya tadqiqotiga jalb qilingan barcha o‘zgaruvchilar va elementlar sanoat korxonalarini mutaxassislarining tavsiyasi asosida tadqiqot yo‘nalishlarini aniqlab olish uchun ishlab chiqilgan. Mazkur so‘rovnomaga uchun tanlangan savollar sanoat korxonalarini menejerlarini fikrini o‘rganishning 5 balli Likert shkalasi asosida javob formati belgilanadi, bunda 1 “juda rozi emasman” va 5 “juda roziman” ni bildiradi.



2-rasm. Mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmandchilikni rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarini aniqlash uchun qurilgan PLS-SEM modeli¹⁷

Biz tanlagan o‘zgaruvchilar miqdoriy emas balki, sifat xususiyatiga ega bo‘lgan shkala miqdorlaridir. Shunga ko‘ra, model olishda yo‘lni tortish sxemasidan (path weighting scheme) foydalanish maqsadga muvofiq. Natijalar muqobil tortish sxemalari uchun juda oz farq qilsa-da, yo‘lni tortish tavsiya etilgan yondashuvdir. Ushbu tortish sxemasi endogen yashirin o‘zgaruvchilar uchun eng yuqori R² qiymatini ta‘minlaydi va odatda PLS yo‘l modelining barcha turdagi spetsifikatsiyalari va taxminlari uchun qo‘llaniladi. Bundan tashqari, yo‘l modeli yuqori tartibli konstruktsiyalarni (ko‘pincha ikkinchi darajali modellar deb ataladi) Tadqiqotchilar odatda markazlashtirilgan tortish sxemasidan foydalanmasliklari kerak. Sanoat korxonalarining yashil energiyaga o‘tish bilan bog‘liq muammolarini aniqlash uchun qurilgan PLS-SEM modeli 2-rasmda aks etgan.

Yuqoridagilarni inobatga olganda sanoat korxonalarining yashil energiyaga o‘tishga tayyorlik darajasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarning yo‘l koeffitsientlari bo‘yicha olingan qiymatlar ishonchli va mazkur model keltirilgan maqsadlarga

¹⁷ SmartPLS paket dasturiy vositasi asosida muallif tomonidan tuzilgan

to'liq muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston Respublikasida mahallalarning darajasi, resurslar bilan ta'minlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish shartlari bo'yicha turlarga ajratish mahallalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish vektorlarini aniqlashga imkon beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi **“Mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmandchilikni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari”** bobida mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlanishini boshqarish samaradorligini baholash uslubi takomillashtirilgan, tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribasi va ulardan mamlakatimizda foydalanish yo'nalishlari keltirilgan, O'zbekiston mahallalarida tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlanishining 2030-yilgacha prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

4-jadval.

Mahallalarda kichik biznesni rivojlanishini boshqarish samaradorligini baholash ko'rsatkichlarining zaruriylik darajalariga ekspertlar tomonidan kursatilgan ballar¹⁸

Ko'rsatkichlar	Mezonlar	Ekspertlar				
		№1	№2	№3	№4	№5
Mahallada tadbirkorlik va hunarmandchilikni strategik rivojlantirish hujjatlarining mavjudligi	IS ₁	5,5	6,0	7,0	6,5	6,0
Mahalla doirasida innovatsion biznes tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash tizimi	IS ₂	5,0	6,0	6,0	6,5	5,5
Biznes va hunarmandchilik bo'yicha mahalliy ta'lim va mentorlik dasturlarining mavjudligi	IS ₃	4,5	5,5	6,5	6,0	5,5
Mahalla darajasidagi muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhlar yoki shtablarning samarali faoliyati	IS ₄	7,0	6,5	7,0	6,0	6,5
Bozor bilan uzviy integratsiya darajasi	IS ₅	6,0	5,5	6,5	5,5	4,0
Yashil iqtisodiyot va ekologik hunarmandchilik amaliyotlarining qo'llanilishi	IS ₆	6,5	7,0	6,5	7,0	5,5
Tadbirkorlik loyihalariga ko'maklashishda mahalliy yetakchilarning faolligi	IS ₇	6,0	6,5	6,0	5,0	5,0
Raqamli savodxonlik va onlayn biznes yuritish malakasi mavjudligi	IS ₈	5,5	6,0	7,0	6,5	6,0
Tadbirkorlikda gender va yosh tengligi tamoyiliga rioya qilinishi	IS ₉	5,0	6,0	6,0	6,5	5,5
Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun resurslar (yer, bino, asbob-uskunalar)ni ajratish tartibining shaffofligi	IS ₁₀	4,5	5,5	6,5	6,0	5,5

Mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlanishini boshqarish samaradorligini baholash uslubida ekspertlar ko'magidan foydalanish maqsadga

¹⁸ Manba: Ekspert baholari asosida muallif tomonidan tayorlagan.

muvofigdir. Boshqaruv amaliyotida shunday vaziyatlar boʻladiki, samaradorlik oʻsishi yoki pasayishi dinamikasini aniqlash va buning asosida asosiy faoliyatni rivojlantirish yoki aynan boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida samaradorlikni oldingi davr bilan yoki turdosh tashkilotlar bilan taqqoslash kerak boʻladi. Bunday vaziyatlarda boshqaruv samaradorligi mezonlari va koʻrsatkichlaridan foydalanilib, ekspertlar fikrining kelishuvchanlik dara-jasi sifatini baholash uchun Xarringtonning verbal-sonli shkalasidan foydalanildi. Mahallalarda kichik biznesni rivojlanishini boshqarish samaradorligini baholash koʻrsatkichlarining zaruriylik darajalariga ekspertlar tomonidan kursatilgan ballarning sifat koʻrsatkichlari keltirilgan.

Mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini sifat va natijadorligi tegishli parametrlarining qiymatini aniqlagandan soʻng integral koʻrsatkichni hisoblab chiqiladi:

$$I_{eff} = \sqrt{IS_n \times IM_n} \quad (1)$$

bu yerda IS_n – mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlanishini boshqarish sifati koeffitsiyenti;

IM_n – mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlanishini boshqarish miqdor koeffitsiyenti;

I_{eff} – mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlanishini boshqarishning integral koʻrsatkichi.

Sifat koeffitsiyenti quyidagi formula boʻyicha aniqlanadi:

$$IS_n = \frac{\sum_{i=1}^n IS_{n\pi}^{\phi} \cdot d_i}{IS_{n,max}} \quad (2)$$

bu yerda d_i – mazkur parametrning muhimligi;

$IS_{n\pi}^{\phi}$ – mazkur parametrning qiymati;

$IS_{n,max}$ – mazkur parametrning maksimal qiymati.

Mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlanishini boshqarish miqdoriy koeffitsiyenti quyidagi formula boʻyicha aniqlanadi:

$$IM_n = \frac{\sum_{i=1}^n IM_{n\pi}^{\phi} \cdot d_i}{IM_{n,max}} \quad (3)$$

bu yerda d_i – mazkur parametrning muhimligi;

$IM_{n\pi}^{\phi}$ – mazkur parametrning qiymati;

$IM_{n,max}$ – mazkur parametrning maksimal qiymati.

Aniqlangan natija 0 bilan 1 ning oʻrtasida boʻladi, natija birga qanchalik yaqin boʻlsa, mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlanishini boshqarish samaradorligi shunchalik yuqori hisoblanadi. Yigʻma koʻrsatkich hisoblangach, mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlanishini boshqarish samaradorligi darajasini tahlil qilish uchun bizga tegishli shkala kerak boʻlgani sababli ekspert usuli asosida baholash uchun shkala ishlab chiqildi (4-jadval).

Mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlanishini boshqarish

sifati va miqdoriyligi tegishli parametrlarining qiymatini aniqlagandan so'ng samaradorlikning yig'ma koeffitsiyentini hisoblab chiqilgan.

2020–2024 yillar oralig'ida tahlil qilingan MFYlar ichida o'sish sur'ati bo'yicha yetakchilikni "Yoyilma" MFY egallab, 90 dan 150 birlikka, ya'ni 66,7% ga o'sish ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich mazkur hududda faol tadbirkorlik, ishlab chiqarish yoki xizmatlar sohasi rivoj topganidan dalolat beradi. Shuningdek, "Uch ariq" (132,4%), "Oq yer" (130,7%), "Oq-tomir" (127,6%) va "Yuqori Avazboy" (127,3%) MFYlari ham yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Ushbu mahallalarda ehtimoliy sabablardan biri sifatida mahalliy infratuzilmaga sarmoya kiritilishi, imtiyozli kreditlar ajratilishi yoki hunarmandchilik va oilaviy tadbirkorlik dasturlarining samarasini ko'rish mumkin.

5-jadval

Mahallalarda tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlanishini boshqarish samaradorligini baholash integral baholash shkalasi¹⁹

Integral ko'rsatkich natijasi	Bahoning mazmuni
0 dan 0,30 gacha	Yomon
0,31 dan 50 gacha	Qoniqarsiz
0,51 dan 70 gacha	Qoniqarli
0,71 dan 0,85 gacha	Yaxshi
0,86 dan 1 gacha	A'lo

Tahlil natijalariga ko'ra, ba'zi MFYlarda o'sish sur'atlari past darajada qolgan. Masalan, "Jalayer" MFY atigi 4,7% (43 dan 45 birlikka), "Turaobod" 6,7% (30 dan 32 birlikka) va "O'yrat" 9,5% (84 dan 92 birlikka) o'sish bilan cheklangan. Ushbu holatlarda iqtisodiy faollikni sekinlashtiruvchi omillar — infratuzilmaviy muammolar, moliyaviy resurslardan foydalanishdagi cheklovlar yoki demografik o'zgarishlar sabab bo'lishi mumkin.

